

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori B.B.Ma'murov
2026-yil 5 sentabr



**13.00.04-JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI
NAZARIYASI VA METODIKASI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Ushbu dastur mutaxassislik bo'yicha OTM fan dasturlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura, hamda mustaqil izlanuvchilikka nomzodlarining soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashga imkon beradi.

TUZUVCHILAR:

B.B.Ma'murov

BuxDPI rektori, pedagogika fanlari doktori,
professor

B. Sa'dullayev.



BuxDPI "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrası
professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Sh.Dj.Abdullayev.



BuxDPI "Jismoniy madaniyat nazariyasi va
metodikki" kafedrası professori, pedagogika
fanlari nomzodi

M.M.To'rayev



BuxDPI "Jismoniy madaniyat nazariyasi va
metodikasi" kafedrası dotsenti

Ushbu dastur institut Kengashining 20 26 yil " 28 " avgust dagi
1 -sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ushbu dastur 13.00.04- Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura, hamda mustaqil izlanuvchilikka nomzodlarining soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashga imkon beradi. Dastur nomzodlarning ixtisoslik yuzasidan imtihon jarayonidagi savollarini o'z ichiga olgan.

Asosiy tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi hukumatining Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qabul qilgan qonuni va qonun osti hujjatlarining mohiyati, Ommaviy jismoniy madaniyat va sportni rivojlanishi, Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi Qonun va boshqa qarorlarni mohiyati, o'zbek sportchilar Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, O'zbekistonda milliy sport turlari, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash.

Jismoniy tarbiya nazariyasining umumiy prinsiplari

Jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish prinsipi, jismoniy tarbiyani sog'lomlashtirishga yo'naltirish prinsiplari.

Jismoniy tarbiya nazariyasining ilmiy tadqiqot uslubiyatlari

Ilmiy tadqiqotda nazariy tahlil va umumlashtirish usuliyati, pedagogik kuzatish ilmiy tadqiqot usuliyati, eksperiment ilmiy tadqiqot metod, matematik hisoblash ilmiy tadqiqot uslubiyati..

Jismoniy mashqlarni klassifikatsiyalash

Jismoniy mashqlarni klassifikatsiya qilishning ahamiyati, jismoniy mashqlarni tarixiy klassifikatsiyasi, jismoniy mashqlarni harakat sifatlarini rivojlantirishiga qarab klassifikatsiyalash.

Jismoniy tarbiya ta'limining uslubiy tamoyillari

Onglilik va faollilik, ko'razmalilik, muntazamlilik, Kuchiga yarashalilik va individuallashtirish, Takroriylik va variatsiyalash (shaklini o'zgartirib qo'llash, Talablarni asta-sekinlik bilan oshirish (progressivlashtirish) So'z, ko'rgazmalilik uslubiy tamoyili.

Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish usullari

Mashg'ulotni tashkil etish xususiyatlarini ochib berish. O'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari:frontal, uzluksiz,guruhli, individual, aylanma trenirovka mashg'ulotlari.

Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazorat: pedagogik tahlil, xronometraj, pulsometriya o'tkazish uslubiyoti

Pedagogik tahlil o'tkazish uslubiyati. Xronometraj o'tkazish uslubiyati. Pulsometriya o'tkazish uslubiyati.pedagogning darsga tayyorlanishi. Darsni tashkil qilish. Darsda qo'llaniladigan vositalar. O'rgatish usullarining qo'llanilishi. Jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash uslubiyati. Pedagogning tarbiyaviy ishi. O'quvchilarning xulqi. Darsni umumlashtirish va xulosa chiqarish

Ta'lim muassasalarida o'quv-jismoniy tarbiya va sport ishlarining Modulini tuzish

Modul haqida tushuncha. Modulni har xil uslublari. So'z, jadval (grafik)

matematik, jismoniy. Jismoniy tarbiya jarayonida modulni bir nechta turlari, shug'ullanuvchilarni jismoniy holatini moduli, jismoniy tarbiya darsini moduli, jarayonni moduli, keyingi funktsional holatni moduli. Sport mashg'ulotida modullashtirish.

Bolalar sport mashg'ulotlari

Sport, sport mashg'ulotlari, sport harakati, sport faoliyati, sport tayyorgarligi va uning tizimi, sport mashg'ulotlari va sportchini tayyorlash, sport bilan chiniqqanlik, tayyorgarlik darajasi, sport ko'rsatkichlari va natijasi, sportchini tasnifi.

Harakatlantiruvchi harakat nazariya jarayonida hodisalar, asosiy tamoyillari, metodologik asoslari

Harakatlantiruvchi harakatga o'rgatishni didaktik tamoyillari. Ta'lim berish. Onglilik va faollik tamoyili.

Harakatlantiruvchi harakatni tushunib olish va faollik tamoyillari, ko'rgazmalilik tamoyillari, tushunarli, individuallashtirish, tizimli, ketma-ketlik tizimlarini pedagogik asoslari

Ko'rgazmalilik tamoyili. Hammani qo'lidan keladigan yoki hammabop va individuallashtirilgan tamoyil. Muntazamlilik tamoyili. Ketma-ketlik tamoyili. O'rgatishni mustahkamlash tamoyili.

Jismoniy yuklamani boshqarish, bolalar organizmini rivojlantirish xuusiyatlari

Sportdagi yuklama. Yuklamaning turlari va xususiyatlari. Mashq yuklamasining hajmi va shiddati. Yuklamalar orasidagi dam olishning ahamiyati. Standart va o'zgaruvchan yuklama.

Kasbiy, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik masalalari

Har bir mashg'ulotda o'quvchilarni kasbiy, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi jismoniy sifatlarini rivojlantirish yordamida oshirish yo'llari.

Model haqida tushuncha, shug'ullanuvchilarni jismoniy tarbiyasini modellashtirish, modelning har xil uslublari, kishining funktsional holati modellaridan foydalana bilish

Yosh sportchilarni tanlash tartibi, jismoniy tarbiyada tanlash, sportga yo'llanma berish. Yosh sportchilarni tanlash muammolar. Modulning har-xil usullari: dastlabki, oraliq va yakuniy. Dastlabki tanlash, nazorat qilish usullari.

Sport mashg'ulotining qonuniyatlari

Sport mashg'ulotining qonuniyatlari va jismoniy tarbiya umumiy tamoyillarining sport musobaqasidagi xususiyatlari yuksak ko'rsatkichlarga intilish. Sportchini umumiy va maxsus tayyorgarligining birligi mashg'ulot jarayonini siklligi

Sport mashg'ulotlar vositalaridan foydalanishni didaktik usullari

Ko'p yillik jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillaridan jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Didaktik usullari onglilik va faollilik, ko'rgazmalilik, muntazamlilik, ketma-ketlilik o'rgatishni mustahkamlashlilik usullari.

Mashg'ulot jarayonining mikrosikl, mezosikl va makrosikllarini tuzilishi hamda sport faoliyatidagi ahamiyati

Sport tayyorgarligi tamoyillarining nisbati (umumiy va maxsus jismoniy, texnik va psixologik va hokazolar) bir-biriga bog'liq bo'lishi. Mashg'ulot tuzilishi.

Mashg'ulot mezosikllarini tuzilishi va turlari. Makrosikllarda mashg'ulotlar jarayonini tuzish metodikasi.

Bolalarning jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada tayyorlash va o'rgatish tizimlari

Sport mashg'ulotlarining qonuniyatlari va jismoniy tarbiya umumiy tamoyillarining yuksak ko'rsatkichlarga intilishi. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi. Mashg'ulot jarayonining uzluksizligi. Yuklama va dam olishning zichlangan tartibi. Mashg'ulot yuklamalarining to'liqsimon o'zgarishi.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish

Jismoniy tarbiya faniga maxsus fanlar bo'yicha o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish hamda uni hayotga joriy etish

Ko'p yillik sport jarayonini takomillashtirish tizimida sportchilarni tayyorlashni asoslari

Yosh sportchilarni tanlash tartibi. Sportda tanlash. Sportga yo'llanma. Yosh sportchilarni tanlash muammolari. Sportda tanlashga amalga oshirishning bosqichlari.

Sport mashg'ulotini modellashtirish va uning usullari. Shug'ullanuvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholashni tashkil qilish hamda o'quv-uslubiy bazasini rejalashtirish

Sport mashg'ulotlarida modellashtirish. Sport mashg'ulotida asosiy guruhga bo'lingan har xil modellar. Musobaqa faoliyatini tuzilishini tavsiflovchi hamda musobaqa faoliyatini samaradorligini ta'minlovchi modellar. Morfofunktsional modellar. Ikkinchi guruh modellari.

Jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilarning funksional holatining tavsifini aniqlash usullari va vositalari

Funksional holat tavsifi. Yurak qon tomir tizimi funksional holatini baholash usullari. Nafas tizimi funksional holatini baholash usullari.

Mashg'ulotlarning ratsional tarkibini ishlab chiqish. Sportchilarning ishchanligini oshirish, tiklanish vositalari

Tibbiy nazorat asosida guruhlar orasida maxsus jismoniy mashqlarni ishlab chiqish. Talabalarda jismoniy qobiliyatlarni oshirish uchun dinamik kuzatuv. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar tiklanishning har xil vositalari.

Jismoniy rivojlanishni nazorat qilish va sport tibbiyotining ilmiy-tadqiqot usullari

Hozirgi davrda jismoniy rivojlanishni baholashga ilmiy yondoshuv. Sport tibbiyotida jismoniy rivojlanishni baholashning yangi innovatsion usullari. Jismoniy rivojlanishni baholash sport tibbiyotining ilmiy tadqiqotlari va uni ahamiyati.

Eksperimental tadqiqotlarni bajarishda qo'llaniladigan stendlar, zamonaviy apparaturalar va boshqa jihozlarni o'rganish va bayon qilish

Tajriba-sinovni o'tkazish uchun kerakli jihozlarni tanlab olish (mavzu bo'yicha). Testlarni o'lchash uchun sekundomer, dinamometr, stanovaya sila va boshqa zamonaviy jihozlarni o'rganish va amalda qo'llash.

Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish

Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tajriba-sinov o'tkaziladigan obyektlarni aniqlash va ular bilan shartnoma tuzish. Olingan natijalarni matematik qayta ishlash, tahlil qilish, ishonchlilikni

aniqlash

Amaliy dasturlar paketi va ma'lumotlar bazalarini tuzish

Olingan tajriba-sinovlarning bazasini to'plash. Qabul qilingan me'yorlar bo'yicha hisobotlar tuzish.

Mutaxassislik ilmiy-metodik mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish holatini tahlil qilish

Ilmiy rahbar bilan birgalikda mavzu bo'yicha tadqiqot o'tkazish holatini tahlil qilish. O'tkaziladigan tajribalarning vaqt me'yorlarini belgilash va uning jadvalini ishlab chiqish. Olingan tajriba-sinov natijalarining o'tkazilish holatlarini tekshirish va tahlil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

Ilmiy mavzusini shakllantirish, adabiyotlar bilan ishlash, ilmiy-tadqiqot (ilmiy-texnikaviy yechim)ning dastlabki asoslarini, uning bajarilib borishini va olingan natijalarini qayd qilish.

Bunda ilmiy asoslar (yoki ilmiy-texnikaviy yechimlar) har taraflama tahlil qilinishini mavjud muqobil variantlarda ko'rib chiqish.

Kirish, adabiyotlar tahlili, nazorat va tajriba guruhlarining o'zlashtirish darajalarini matematik hisoblash, qanday texnologiyalardan foydalanilganligi, natijalari, xulosalari.

O'lchash natijalariga statistik ishlov berishning asosiy usullari

O'lchash natijalarining bir o'lchamli qatorlari. O'lchash natijalari qatorining asosiy statistik xarakteristikalarini. O'lchash natijalarining o'zaro bog'liqligi. Korrelyatsion tahlil. Regressiya. Dispersion tahlil. Statistik gipotezalar va statistik xarakteristikalarining ishonchligi.

Testlar nazariyasi asoslari. Baholash nazariyasi asoslari

Testlar nazariyasining asosiy tushunchalari. Testlar ishonchliligi. Baholash ishonchliligi. Testlar mustahkamligi (stabilligi). Testlarning o'zaro mosligi. Testlarning ekvivalentligi. Testlarning informativligi. Informativlik turlari. Baholash nazariyasining asosiy tushunchalari. Baholashning asosiy vazifalari. Baholash mezonlari. Baholash shkalalari. Testlarni kompleks baholash. Normalar va ularning turlari.

Kvalimetriya, yoki sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash usullari

Kvalimetriyaning asosiy tushunchalari. Sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash jarayoni. Sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari. Ekspert baholash usuli. Anketa o'tkazish usuli.asoslari

Sportchilarning texnik va taktik tayyorgarligi nazoratini metrologik

Jismoniy tarbiya va sportda sportchilarning texnik tayyorgarligini metrologik nazorati. Sportchilarning trenirovka va musobaqa faoliyatini metrologik nazorat asoslari.

Sportchilarning jismoniy tayyorgarligi nazoratini metrologik asoslari. Nazoratga umumiy talablar. Tezlik sifatlarini nazorat qilish. Kuch sifatlarini nazorat qilish. Kuch va tezlikning asosiy ko'rsatkichlarini o'lchash. Chidamlilik darajasining nazorati. Egiluvchanlik sifatlarini nazorat qilish. Chaqqonlikni nazorat qilish.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning zamonaviy tizimi

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni boshqarish shakllari, umumiy va maxsus vakolatli organlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi boshqaruv tashkilotlari tizimida. O'zbekiston Respublikasida sport sanoatini rivojlantirishning maqsadli kompleks dasturi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mehnat munosabatlari. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha faoliyatning moddiy texnik ta'minoti. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish shakllari.

Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar

Sport menejmenti va marketingda boshqaruv qarorlari tasnifi. Sport menejmenti va marketingda qaror qabul qilish texnologiyasi. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi va uslublari. Qarorlarning bajarilishini nazorat qilish.

Sport tashkilotlari: mohiyati, tashkiliy-huquqiy shakllari

Tadbirkorlik faoliyatlarini yuritish texnologiyasi. Sport tashkilotlarini tashkil etish texnologiyasi va faoliyatni litsenziyalash. Sport tashkilotining biznes-rejasi, maqsadi, strukturasi va tuzilishi. Sport musobaqalarining turi, vazifalari va tamoyillari. Sport musobaqalarini o'tkazish tizimi va boshqarish. Strategik rejalashtirish va uning bosqichlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maqsadli kompleks dasturlar.

Jismoniy tarbiya va sport menejmenti tizimini moliyalashtirish

Sportni boshqarishtizimi iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport korxonalarida mustaqil iqtisodiy faoliyatiniolib borish. Sport korxonalarining moliyaviy mablag'lari va uning manbalari, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar. Byudjetdan tashqari mablag'larni manbaini izlash va jalb etish. Sport korxonalarining byudjet mablag'larini shakllanishi. Sport korxonalarining byudjet tizimining tamoyillari va ichki moliyaviy tushumning uslubiy yagonaligi; daromad va xarajatlar hisobotini to'liqligi; oshkoralik; rahbarlar darajasi bo'yicha byudjet vakolatlarini taqsimlash.

Jismoniy tarbiya va sport menejmenti tizimida marketing

Sport menejmenti tizimida marketing faoliyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport xizmatlari marketingi, uning me'yoriyxujjatlari. Mehnat (kadrlar) bozoridagi ish beruvchilar bilan sport muassasasi o'rtasidagi maqsadli hamkorlik. Mutaxassislarga bo'lgan talabni o'rganish va bashorat qilish. Sport menejmenti tizimida marketing tadqiqotlarini o'tkazish maqsadlari, sport bozori talablari, sport sohasidagi xizmatlarni asosiy yo'nalishlari va ularga qo'yiladigan talablar.

Jismoniy tarbiya va sportda marketing xizmatini boshqarish

Sport marketingda boshqaruvning iqtisodiy qonunlari. Sport marketingni bozorga xos boshqarish tizimi. Sport marketingini boshqarishning tamoyillari, usullari va metodikasi. Sport marketingi xizmatini boshqarishning iqtisodiy usullari.

Jismoniy tarbiya va sport korxonalarida tovar bozorini tadqiq qilish

Sport tovarlari haqida tushuncha va ularning tasniflanishi. Sport korxonalarida bozorning tovar strukturasi o'rganish. Sport marketingda bozor konyunkturasini o'rganish. Sport marketingda tovar bozori hajmini aniqlash. Sport marketingi bozorida talab va taklifni o'rganish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T.«Zarqalam»2004 yil.
2. Саломов Р.С. "Спорт машгулотларининг назарий асослари "ўқув Қўлланма Т.: ЎзДЖТИ нашриёти 2005 А.
3. Goncharova O.V.Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini Rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005yil.
- Salomov R.S.Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik.T.: 4. <ITA-PRESS», 2014.2696et.
5. Salomov R. S., SharipovA.K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2015.182 бет.
6. A.Akbarov, B.B.Musayev. "Sport metrologiyasi". Darslik.T.: "Tafakkur qanoti", 2014,424 bet.
7. Sportivnaya metrologiya. Uchebnik dlya institutov fizicheskoy madaniyati. Pod red. Zatsiorskogo. M: FI, 1982 yil.
8. Godik M.A.Kontrol trenirovochnix va sorevnovatelnix nagruzok.M.: FiS, 1980 y.
9. Tolametov A.A., Akbarov A., Chastoedova metrologiya (Tekst leksiy) UzGIIFK, 2010. A.Yu., Sportivnaya
10. G'oziyeva Z.Yu., NurmuxamedovaT.A.Sport tibbiyoti. Uslubiy qo'llanma. T.: O'zDJTI, 2012 y.
11. Yo'ldashev N.Q. Qozoqov O.S. "Menejment "o'quv qo'llab-quvvatlanmama T.: Fan 2004 y.
12. Zolotov M.I. Kuzin V.V. Kutepov M.E, Seyranov S.G. Menedjmenti iqtisodiyot fizicheskoy kultury i sporta uch.posobem. tsentr «Akademiya», 2001 y.
13. Yarashev K.D. "Jismoniy tarbiya va sportni boshkarish" darslik T.: Ibn Sino 2002 y.
14. Abdumalikov R. "Jismoniy tarbiya va sportni boshkarishning nazariy asoslari" o'qishga yordam berish T.: O'ZDJTI 1996 y.
15. U.S.Do'sanov. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma Tashkent 2019 y
16. Ma'murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, "Turon Zamin Ziyo", 2014.
17. Ma'murov B.B Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Darslik - Durdoni nashri, 2019

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1 O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2015 y.
2. Smirnov Yu.I. Metrologicheskie osnov va sportivnoy metrologii. Teoriya va amaliyot fizicheskoy kulturi. 1980 yil, № 11.
- 3.Qosimbekov Z.T.Metod i statisticeskoe brabotki.rezultatov sportivnix izereniy. (Kurs leksiy). T.; UZGIFK, 1997.
4. Qosimbekov 3.T.Osnov matematika statistikasi. (Tsikl prakticheskix zanyatiy). T.: UZGIFK, 1997 y.

5. Kasimbekov Z.T.va boshqalar. Sportchilarning jismoniy tayyorgarligi ustidan nazorat kilishning metrologik asoslari. (Usuliy tavsiya nomalar) T.: O'zDJTI, 1993.

6. Tolametov A.A. "Sport metrologiya" (Chizma hisoblashishlari uchun uslubiy qo'llanma). UzDJTI 2009 yil

7. Tolametov A.A. AkbarovA., "Sport metrologiyasi"o'quv qo'llanma (nashriyotda).

8. Tolametov A.A., AkbarovA. Sport metrologiya, (Malaka oshirish fakulteti tinglovchilari uchun uslubiy qo'llanma), T.: O'zDJTI, 2010.

Internet saytlari

1. <http://www.sport.ru>

2. <http://www.sport.com>.

3. <http://www.sport.uz>.

Sinov topshirish shakli	Ogʻzaki
Ajratilgan vaqt	25 daqiqa
Savollar soni	5 ta
Har bir savol uchun belgilangan ball	20 ball
Maksimal ball	100 ball

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING
TAYANCH DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

13.00.04 jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha qabul sinovlar yozma usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, jismoniy tarbiya tarixi, nazariyasi va metodikasiga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish kursatkichi 21,5-25 ball oraligida baholanadi.

Savolga to'g'ri javob bersa, ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqli yoritilgan bo'lsa, biroq bugungi ta'lim va tarbiya jarayoni yangilanishlar amaliyoti bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l quyilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 18-21 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob bersa, biroq qo'yilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 14-17,5 ball oralig'ida baholanadi.

T.r	Umumiy ball	Baho	Bilim darajasi	Xususiy ball
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Quyilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan. O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tatbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan.	8-8,5 7-7,5 5-6,5 1,5-2,5
2	21-18	Yaxshi (71-85)	Javob to'g'ri yozilgan, unda siyosiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo sana sonlarda chalkashliklarga yo'l quyilgan. Javobda talabgorning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud.	6-7 5,5-6 3,5-4
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.	5-6 4-4,5 3-4 2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. Qoniqarsiz (0-54) O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan	0-13,5

